XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSIYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UN DARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN	1286
Shokhrukh Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1321
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINING INNOVATSION VA MOSLASHUVCHAN SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH	1326
Umarova Gulandom Tumanovna	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЁРСТВО В КОММУНАЛЬНОЙ СФЕРЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА КИТАЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	1330
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KONSTRUKTIV MASALANI YECHISH USLUBI	1334
Azimov Alisher, Sabirova Dildora, Tairova Nafisa	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ	1338
Махмудова Наргиза Давлят кизи	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TA'SIRI	1343
Mardonov Mamed Shavkatovich, Suyunov Raxmatillo Raximberdi o'g'li	
АНАЛИЗ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВО-ДЕЛОВОЙ АКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	1347
Ахмедова Азиза Тохириевна	



MAKROIQTISODIY TEBRANISHLAR VA IQTISODIY SIKLLAR: SABABLARI VA RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	1352
Muxammedov Murod Muxamedovich	
O'ZBEKISTONDA VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	1356
Ibragimova Muxlisa Abdulxakimovna	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURISTIK-REKREATSION SALOHİYATNING MAZMUNI VA ILMIY TALQINI.....	1362
Usmanova Zumrad Islamovna	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1366
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA MOLIYAVIY JIHATLARI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI.....	1370
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna, No'monova Hilola Muftillo qizi	
SUG'URTA VA FOND BOZORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO INTEGRATSIYA BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI.....	1375
Kengesbaeva Suluxan Maxsetbay qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНА.....	1380
Тулибаева Камола	
АНАЛИЗ ЛИКВИДНОСТИ БАНКОВ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ.....	1385
Ходжаева Феруза Авазхановна	
XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO TAHLILI VA ISTIQBOLLARI.....	1389
Qurbanov Feruz Bahramovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA INSON KAPITALINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	1395
Alimova Oydin Baxtiyarovna	
OUTSOURCING: A MODERN WAY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF ENTERPRISES.....	1402
Dauletaliyeva Aymereke Sagievna	
O'ZBEKISTONDA YUK VAGONLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1406
Kaydarov Ismatulla	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA INNOVATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI.....	1412
Tursunova Nazokat Tolibjonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SIFATINI MUSTAQIL BAHOLASH (AQR) MARKAZINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	1418
Suxrob G'aybulloev	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	1427
Kasimova Gulyor Axmatovna, Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi	
INNOVATSION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	1432
Atamatov Abduxalil Salomovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSIYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH.....	1437
Ibragimov G'anjon G'ayratovich	
TURIZM KLASSTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASSTERLARGACHA.....	1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi	
IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI.....	1446
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1463
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	1467
Axmedov Sheramat Umurxojayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1472
Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi	
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1477
Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek	
TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	1481
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
XORAZM VILOYATIDA SUV RESURSLARI TANQISLIGI VA TUPROQ DEGRADATSIYASINING MINTAQANING EKOLOGIK-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI.....	1486
Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINING HUDUDIY TAFOVUTLARI TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA (2021-2025)	1491
Yaqubov San'at Shonazarovich	
KICHIK VA O'RTA AGROBIZNESLARNING EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1501
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
WTO ACCESSION AND ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM VIETNAM AND KAZAKHSTAN	1507
J.Ya. Nurillaev	
MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI	1513
Sodikov Zokir Rustamovich	
KRIPTOBIRJA AXBOROT TIZIMIDA SERVER YUKLAMASINI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1519
Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna	
TEJAMKORLIK VA INNOVATSIYA: IQTISODIY O'SISHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	1524
Allaberganov Zakir G'ayibovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA MAHALLIY BUDJET VA MOLIYAVIY MANBALARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARI	1530
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTON O'RTA BIZNES KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, SABABLAR VA KOMPLEKS YECHIMLAR.....	1538
Kutimov Baxtiyor, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
FISKAL SIYOSAT VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: DAVLAT QARZI, INVESTITSIYALAR VA SOLIQ YUKLAMASI TA'SIRINING EKONOMETRIK BAHOLASHI.....	1541
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YAYLOV CHORVACHILIGIDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	1550
Xalmirzaev Axmadjan Axunovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA "YASHIL" MENEJMENTNI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1555
Abdullaev Nokisbay Abdullaevich	



YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YASHIL SOLIQLARNING AHAMIYATI: IQTISODIY TARAQQIYOT SARI YASHIL QADAM.....	1559
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
METHODOLOGICAL MODELS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN REGIONS	1566
Majidova Sanobar Daminovna	
UZBEKISTAN UTILIZES DIGITAL PLATFORMS TO PROMOTE SUSTAINABLE GROWTH IN TOURISM: A COMPARATIVE STUDY BASED ON THE BELT AND ROAD INITIATIVE.....	1573
Li Yang	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT JARAYONLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	1581
Tuyinov Botir Ismatovich	
TRANSFORMATION OF THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: CULTURAL AND INSTITUTIONAL APPROACHES.....	1588
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
GULCHILIK TARMOG'IDA OILAVIY KASBIY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA	1594
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
RAQAMLASHTIRISH BOSHQARUV INFRATUZILMASI SIFATIDA: O'ZBEKISTONDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA KORPORATIV BOSHQARUV.....	1599
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
IJRO HUJJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1602
Matmurotova Nasiba Azatovna	



IJRO HUJJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Matmuratova Nasiba Azatovna

Majburiy ijro byurosi Mirobod tumani davlat ijrochisi

Email: nmmashrabboyev926@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ijro hujjatlarini majburiy ijro etish tizimini raqamlashtirish jarayonlari, uning huquqiy asoslari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqolada «Elektron ijro varaqasi» tizimining joriy etilishi, davlat xizmatlari portali orqali ijro ishlarini yuritish imkoniyatlari, shuningdek, sud va ijro organlari o'rtasidagi elektron hamkorlik masalalari ko'rib chiqilgan. Raqamlashtirish jarayonidagi mavjud muammolar, xususan, axborot xavfsizligi, texnik infratuzilma etishmovchiligi va kadrlar malakasi masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijro tizimini to'liq raqamlashtirish ish samaradorligini oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va fuqarolarning huquqlarini tezkor ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi omil ekanligi isbotlangan. Maqola so'ngida tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: majburiy ijro, ijro hujjatlari, raqamlashtirish, elektron ijro varaqasi, avtomatlashtirilgan tizim, sud-ijro tizimi, davlat xizmatlari, ijro ishlarini yuritish.

Abstract. This article analyzes the processes of digitization of the system of compulsory execution of executive documents in the Republic of Uzbekistan, its legal foundations and practical application. The article considers the introduction of the "Electronic Execution Form" system, the possibilities of conducting enforcement proceedings through the public services portal, as well as issues of electronic cooperation between the judiciary and executive bodies. The existing problems in the digitization process are highlighted, in particular, information security, lack of technical infrastructure and personnel qualifications. According to the results of the study, it is proven that the full digitization of the enforcement system is a decisive factor in increasing work efficiency, reducing bureaucratic barriers and expeditious implementation of citizens' rights. At the end of the article, scientific and practical proposals are developed for further improving the system.

Key words: compulsory execution, executive documents, digitization, electronic execution form, automated system, judicial and executive system, public services, enforcement proceedings.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы цифровизации системы принудительного исполнения исполнительных документов в Республике Узбекистан, ее правовые основы и практическое применение. Рассматривается внедрение системы «Электронная исполнительная форма», возможности проведения исполнительного производства через портал государственных услуг, а также вопросы электронного сотрудничества между судебной и исполнительной властью. Выделены существующие проблемы в процессе цифровизации, в частности, информационная безопасность, недостаток технической инфраструктуры и квалификации персонала. По результатам исследования доказано, что полная цифровизация системы принудительного исполнения является решающим фактором повышения эффективности работы, снижения бюрократических барьеров и оперативного осуществления прав граждан. В заключение статьи разработаны научно-практические предложения по дальнейшему совершенствованию системы.

Ключевые слова: принудительное исполнение, исполнительные документы, цифровизация, электронная исполнительная форма, автоматизированная система, судебно-исполнительная система, государственные услуги, исполнительное производство.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimining barcha sohalariga, shu jumladan, sud-huquq tizimiga va ijro ishlarini yuritish faoliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston



Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida ijro hujjatlarini majburiy ijro etish tizimi tubdan yangilandi. Bu jarayonda an'anaviy qog'ozbozlik usullaridan voz kechib, to'liq raqamli muhitga o'tish strategik ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida sud va ijro tizimini raqamlashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1].

Ijro hujjatlarini majburiy ijro etish – bu sud, hakamlik sudi yoki boshqa vakolatli organlar qabul qilgan qarorlarning hayotga tatbiq etilishini ta'minlovchi muhim huquqiy mexanizmdir. Uzoq vaqt davomida bu sohada qog'oz hujjatlar almashinuvi, hujjatlarning yo'qolishi xavfi, ishlarni ko'rib chiqish muddatlarining cho'zilishi va inson omiliga bog'liq xatolar kuzatib kelingan. Mazkur muammolarni bartaraf etish, shaffoflikni ta'minlash va ijro samaradorligini oshirish maqsadida raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Raqamlashtirish nafaqat texnik jarayon, balki huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash vositasidir.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ijro tizimini raqamlashtirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hali ham hal etilishi lozim bo'lgan bir qator nazariy va amaliy masalalar mavjud. Tizimlararo integratsiyaning to'liq yo'lga qo'yilmaganligi, ayrim hududlarda texnik infratuzilmaning zaifligi, elektron hujjat aylanuvidagi xavfsizlik masalalari va xodimlarning raqamli savodxonligi darajasi kabi muammolar tizimning to'liq salohiyatini ochib berishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, raqamli muhitda ijro hujjatlarining huquqiy kuchi, elektron imzoning ahamiyati va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilishni talab etadi.

Maqolaning maqsadi – O'zbekiston Respublikasida ijro hujjatlarini majburiy ijro etish jarayonini raqamlashtirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini tahlil qilish, mavjud yutuqlar va muammolarni aniqlash, shuningdek, tizimni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijro hujjatlarini majburiy ijro etish tizimini raqamlashtirish masalalari o'zbek va xorijiy olimlar, shuningdek, amaliyotchilar tomonidan turli qirralardan o'rganilgan. Mazkur sohadagi ilmiy izlanishlar asosan ikki yo'nalishda rivojlangan: birinchisi – raqamlashtirishning huquqiy aspektlari, ikkinchisi – texnik-tashkiliy jihatlari.

O'zbekistonlik huquqshunos olimlardan biri B.B. Rajabov o'zining monografiyasida sud-huquq tizimini modernizatsiyalash jarayonida elektron hujjat aylanuvining ahamiyatini tahlil qilgan. Muallif ta'kidlaganidek, ijro ishlarini yuritishda qog'oz hujjatlardan elektron shaklga o'tish nafaqat vaqt tejash, balki korrupsiyaviy omillarni minimallashtirishga ham xizmat qiladi [2]. Rajabovning fikricha, elektron ijro varaqasining joriy etilishi ijrochilar va qarzdorlar o'rtasidagi munosabatlarni shaffoflashtiradi, lekin bunda axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi birinchi o'ringa chiqadi.

Yana bir taniqli tadqiqotchi Sh.R. Hamidov ijro ishlarini yuritishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishning protsessual jihatlari e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, raqamli tizimlar ijro harakatlarini amalga oshirish muddatlarini qisqartirishga imkon beradi, biroq qonunchilikdagi ayrim bo'shliqlar tufayli elektron hujjatlarning huquqiy kuchi ba'zan shubha ostiga olinishi mumkin [3]. Hamidov elektron imzoning yuridik ahamiyatini kuchaytirish va elektron hujjatlarni dalil sifatida qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xorijiy tajribani o'rgangan holda, rus olimi A.V. Endeev MDH davlatlaridagi ijro tizimini raqamlashtirish jarayonlarini taqqoslama tahlil qilgan. U Rossiya Federatsiyasidagi FSSP (Federalnaya slujba sudebnyx pristavov) avtomatlashtirilgan banki ma'lumotlari bilan integratsiyasi misolida, ma'lumotlar bazalarini birlashtirish ijro samaradorligini keskin oshirishini isbotlagan [4]. Endeevning xulosalariga ko'ra, muvaffaqiyatli raqamlashtirish uchun faqat dasturiy ta'minot emas, balki idoralararo hamkorlikning mustahkam huquqiy asosga ega bo'lishi shart.

Shuningdek, O.V. Isaenkova ijro ishlarini yuritishdagi innovatsion texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining kelajagini tahlil qilgan. Muallif fikricha, kelajakda ijro hujjatlarini rasmiylashtirish va nazorat qilishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish hujjatlarning o'zgartirilmasligini va ularga bo'lgan ishonchni kafolatlaydi [5]. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar O'zbekiston uchun ham nihoyatda dolzarb bo'lib, milliy tizimga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish istiqbollarini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish masalalari keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekistonning milliy sharoitidagi maxsus muammolar, xususan, qishloq joylaridagi texnik imkoniyatlar cheklanganligi va aholining raqamli savodxonligi darajasini hisobga olgan holda kompleks yondashuvlar hali ham yetarli emas. Shuning uchun mazkur maqolada amaliyotdagi real vaziyat va taklif etilayotgan yechimlarga alohida e'tibor qaratiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola yozilish jarayonida umumilmiy va maxsus huquqiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan. Asosiy metod sifatida tizimli tahlil usuli tanlangan bo'lib, u ijro tizimini raqamlashtirishni yakka tartibdagi hodisa emas, balki davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Tarixiy-huquqiy metod yordamida ijro tizimidagi islohotlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi, qog'oz hujjat aylanuvidan elektron tizimga o'tish tarixi tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy metod xorijiy davlatlar (Rossiya, Qozog'iston, Estoniya) tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkonini berdi. Rasmiy-huquqiy (formal-yuridik) metod orqali O'zbekiston Respublikasining «Ijro hujjatlari va ijro ishlarini yuritish to'g'risida»gi Qonuni, «Elektron hujjat aylanuvi to'g'risida»gi Qonun va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi, ulardagi normalarning mazmuni va qo'llanilish amaliyoti o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamlashtirish jarayonining huquqiy asoslari va amaliy tatbiqi O'zbekiston Respublikasida ijro hujjatlarini majburiy ijro etish tizimini raqamlashtirishning huquqiy poydevori so'nggi besh yil ichida mustahkamlandi. 2020-yilda qabul qilingan «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi» va keyinchalik tasdiqlangan «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi ijro tizimini modernizatsiyalash uchun dasturulamal bo'ldi. Bevosita ijro sohasidagi asosiy normativ hujjat – O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-sentabrdagi «Ijro hujjatlari va ijro ishlarini yuritish to'g'risida»gi Qonuni bo'lib, unda elektron ijro hujjatlarining huquqiy maqomi birinchi marta qonun darajasida mustahkamlandi [6].

Ushbu Qonunga muvofiq, ijro varaqasi endilikda faqat qog'oz shaklda emas, balki elektron shaklda ham rasmiylashtirilishi mumkin. Elektron ijro varaqasi sud tomonidan chiqarilib, maxsus kriptografik himoya vositalari (elektron raqamli imzo) orqali tasdiqlanadi va to'g'ridan-to'g'ri sud pristavlarini xizmatining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga yuboriladi. Bu jarayonda qog'oz hujjatlarni yetkazish, ro'yxatga olish va qayta ishlash bilan bog'liq vaqt talafoti to'liq bartaraf etildi. Ilgari sud qarori chiqqanidan keyin ijro varaqasini qo'ldan yetkazish bir necha kun, hatto haftalab vaqt olishi mumkin edi. Hozirda esa bu jarayon bir necha daqiqada ichida amalga oshadi.

Ijro tizimini raqamlashtirishning yana bir muhim yo'nalishi – bu «E-ijro» (elektron ijro) axborot tizimining joriy etilishidir. Ushbu tizim orqali ijrochilar ishlarni ro'yxatga olish, qarzdorlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini tekshirish, mol-mulkni xatlash, bank hisobvaraqlariga talabnoma yuborish kabi barcha ijro harakatlarini masofadan boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Tizim barcha ijro ishlarining yagona elektron kartotekasini shakllantiradi, bu esa har bir ishning holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Fuqarolar va yuridik shaxslar ham «My.gov.uz» portali orqali o'zlariga tegishli ijro ishlari haqida ma'lumot olish, qarzdorlikni to'lash va hatto ijrochi bilan onlayn muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar [7].

Sud va ijro organlari o'rtasidagi elektron hamkorlik tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarning aksariyati avtomatik ravishda ijro tizimiga integratsiya qilinmoqda. Bu «inson omili»ni kamaytiradi, ya'ni ijro varaqasining yo'qolishi, kechikishi yoki qasddan yashirilishi kabi holatlarning oldini oladi. Shuningdek, boshqa davlat organlari (Soliq qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Banklar assotsiatsiyasi, Kadastr agentligi) bilan ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilishi ijrochilarga qarzdorning mol-mulkini tezkor aniqlash va unga nisbatan chora ko'rish imkonini bermoqda. Masalan, ijrochi tizimga kiritish bilan qarzdorning bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar avtomatik ravishda hisobdan chiqarilishi yoki uning nomidagi ko'chmas mulkka xatlov qo'yilishi mumkin.

Raqamlashtirish jarayonida elektron to'lov tizimlarining integratsiyasi ham alohida o'rin tutadi. Qarzdorlar endi banklarga bormasdan, mobil banklar yoki to'lov terminallari orqali ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorlikni to'lashlari mumkin. To'lov amalga oshirilganidan so'ng, ma'lumot darhol ijro tizimiga tushadi va ijro ishi yopiladi yoki tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Bu jarayon nafaqat qarzdorlar uchun qulaylik yaratdi, balki pul mablag'larining maqsadli sarflanishini va hisobotdorlikni ta'minladi.

Garchi ijro tizimini raqamlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, amaliyotda tizimni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligi kuzatilmoqda. Ushbu jihatlarni tizimli ravishda tahlil qilish kelajakdagi islohotlar uchun muhim zamin yaratadi.

Birinchi navbatda, texnik infratuzilma va internet tarmog'ini rivojlantirish masalasi dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, chekka tumanlar va qishloq joylaridagi ijro bo'limlarida internet tezligini oshirish va barqarorligini ta'minlash orqali elektron tizimlardan yanada samarali foydalanish imkoniyati kengayadi. Ijrochilar uchun tizimga kirish jarayonlarini soddalashtirish ishlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Serverlar quvvatini oshirish va tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlash esa favqulodda vaziyatlarda tezkor chora ko'rish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.



Ikkinchi muhim yo'nalish – idoralararo ma'lumotlar almashinuvini yanada rivojlantirish va to'liq integratsiyani ta'minlashdir. Garchi ko'plab davlat organlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ayrim muassasalarni ham to'liq raqamli tizimga jalb etish orqali ma'lumotlar almashinuvini yanada tezkor va qulay qilish mumkin. Ma'lumotlar bazalarini real vaqt rejimida sinxronlash ijrochilar ishini yengillashtiradi va raqamlashtirishning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ma'lumotlar bazalaridagi yozuvlarni yagona standart asosida muvofiqlashtirish tizimning aniqligi va ishonchligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, axborot xavfsizligi va kiberhimoya tizimlarini kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijro tizimida saqlanayotgan shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yanada mustahkamlanadi. Kiberxavfsizlik choralarini takomillashtirish orqali ma'lumotlarni himoya qilish darajasi oshiriladi. Shu bilan birga, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish xodimlar tomonidan ma'lumotlardan foydalanishda mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi yo'nalish – kadrlar malakasini oshirish va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Ijro tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun zamonaviy texnologiyalar bo'yicha muntazam o'quv dasturlarini takomillashtirish ularning kasbiy salohiyatini oshiradi. Yangi tizimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi amaliy treninglar xodimlarning samarali ishlashini ta'minlaydi. Shu orqali elektron tizimlardan foydalanish darajasi ortib, umumiy samaradorlik oshadi.

Beshinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolarni elektron hukumat xizmatlaridan foydalanishga o'rgatish, elektron imzo olish va onlayn to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha targ'ibot va o'quv dasturlarini kengaytirish orqali tizimning qamrovi yanada ortadi. Ayniqsa, qishloq joylarida va katta yoshdagi aholi o'rtasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi va ijro bo'limlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi.

Ijro tizimini raqamlashtirish bo'yicha xorijiy davlatlarda to'plangan boy tajriba mavjud bo'lib, uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish katta foyda berishi mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasida Federal sud pristavlari xizmati (FSSP) tomonidan yaratilgan «Bank dannyx ispolnitel'nyx proizvodstv» tizimi jahondagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim orqali istalgan fuqaro yoki tashkilot qarzdorlik haqida ma'lumot olishi, onlayn to'lov amalga oshirishi mumkin. Rossiyada sud va pristavlar o'rtasidagi elektron hujjat aylanuvi to'liq yo'lga qo'yilgan bo'lib, sud qarori chiqishi bilan avtomatik ravishda ijro ishi ochiladi. Bundan tashqari, Rossiyada «Госслуги» portali orqali qarzdorlarga cheklovlar qo'yish va ularni bekor qilish jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan [8].

Estoniya davlati raqamli hukumat sohasida yetakchi bo'lib, ulardagi «e-Toimik» (elektron ish) tizimi diqqatga sazovordir. Estoniyada sud, prokuratura, politsiya va ijro organlari yagona raqamli platformada birlashgan. Barcha hujjatlar elektron shaklda bo'lib, blokcheyn texnologiyasi orqali himoyalangan. Bu hujjatlarning haqqoniyligi va o'zgartirilmasligini 100% kafolatlaydi. Estoniya tajribasi shundan dalolat beradiki, tizimlararo integratsiya qanchalik chuqur bo'lsa, ijro jarayoni shunchalik tez va shaffof bo'ladi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalardan quyidagilarni tatbiq etish maqsadga muvofiq:

1. Blokcheyn texnologiyasini joriy etish: ijro hujjatlarining haqqoniyligini ta'minlash va ularga noqonuniy o'zgartirishlar kiritilishining oldini olish uchun blokcheyn platformasidan foydalanish.
2. Sun'iy intellektdan foydalanish: qarzdorlarning moliyaviy holatini tahlil qilish, ijro choralarini optimallashtirish va ishlarni avtomatik taqsimlash uchun AI algoritmlarini qo'llash.
3. To'liq integratsiya: barcha davlat va xususiy tashkilotlar bazalarini yagona markazlashtirilgan tizimga real vaqt rejimida ulash, qog'oz so'rovnomalarni to'liq bekor qilish.
4. Mobil ilovalarni rivojlantirish: fuqarolar uchun qulay, ko'p tilli va oddiy interfeysga ega mobil ilovalar yaratish, unda push-bildirishlar, onlayn to'lov va virtual qabulxona funksiyalari bo'lishi kerak.

Ijro tizimini raqamlashtirishni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar

Yuqoridagi tahlillar va xorijiy tajriba asosida O'zbekiston Respublikasida ijro hujjatlarini majburiy ijro etish tizimini raqamlashtirishni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarur. «Ijro hujjatlari va ijro ishlarini yuritish to'g'risida»gi Qonunga elektron hujjatlarning huquqiy kuchini yanada kuchaytiruvchi, shuningdek, elektron imzoning turli shakllaridan (jumladan, biometrik imzo) foydalanishni kengaytiruvchi qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq. Shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni majburiy qilib qo'yadigan va ma'lumotlar almashinuvi muddatlarini qat'iy belgilaydigan hukumat qarori qabul qilinishi lozim.

Ikkinchidan, texnik infratuzilmani mustahkamlash. Barcha ijro bo'limlarini yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash, server quvvatlarini oshirish va zaxira nusxalash tizimlarini joriy etish zarur. Davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy ma'lumotlar markazlarini qurish orqali tizimning barqarorligini ta'minlash mumkin. Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus himoya dasturlarini joriy etish va muntazam audit o'tkazib turish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish. Ijro tizimi xodimlari uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha muntazam o'quv seminarlari, treninglar va attestatsiyalarni tashkil etish zarur. Yangi xodimlarni ishga



qabul qilishda ularning kompyuter savodxonligi darajasi me'yor sifatida belgilanishi kerak. Shuningdek, IT mutaxassislari ijro tizimiga jalb qilish va ular uchun rag'batlantirish tizimini yaratish lozim.

To'rtinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va mahallalar orqali elektron xizmatlardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Qishloq joylardagi aholi uchun mobil guruhlar tashkil etib, ularga elektron imzo olish va onlayn to'lovlarni amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, yangi texnologiyalarni joriy etish. Kelajakda ijro tizimida sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish rejasini ishlab chiqish zarur. Masalan, kichik summali qarzdorliklar bo'yicha ijro harakatlarini to'liq avtomatlashtirish (robot-ijrochilar yordamida) inson omilini to'liq bartaraf etishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ijro hujjatlarini majburiy ijro etish jarayonini raqamlashtirish O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim va samarali yo'nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ijro ishlarini yuritish tezligini oshirdi, shaffoflikni ta'minladi, korrupsiyaviy risklarni kamaytirdi va fuqarolar uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. «Elektron ijro varaqasi» va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining faoliyati bu islohotlarning to'g'ri yo'naltirilganini isbotlamoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda. Texnik infratuzilmani yanada mustahkamlash, idoralararo integratsiyani kengaytirish, axborot xavfsizligi tizimlarini kuchaytirish hamda kadrlar malakasini oshirish orqali tizim samaradorligini yanada yuksaltirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu yo'nalishlarda kompleks yondashuv, ya'ni huquqiy, texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni uyg'un holda amalga oshirish raqamli transformatsiyaning keyingi bosqichini muvaffaqiyatli ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Ражабов Б.Б. Суд-ҳуқуқ тизимини рақамлаштириш: ҳуқуқий асослар ва амалиёт. – Тошкент: «Адолат», 2021. – 245 б.
3. Ҳамидов Ш.Р. Ижро ишларини юритишда электрон ҳужжат айланувининг процессуал масалалари // Ҳуқуқ ва бурч. – 2022. – № 3. – Б. 45-52.
4. Ендеев А.В. Информатизация деятельности службы судебных приставов: российский и зарубежный опыт // Вестник службы судебных приставов. – 2020. – № 2. – С. 15-23.
5. Исаенкова О.В. Инновационные технологии в исполнительном производстве: перспективы использования блокчейна // Журнал российского права. – 2021. – № 5. – С. 88-96.
6. Адлия вазирлиги ҳузуридаги Судебный приставлар хизматининг 2023 йилги фаолият ҳисоботи [Электрон манба]. – Кириш режими: <https://spiil.uz> (Мурожаат қилинган сана: 10.05.2024).
7. Зайцев И.М. Цифровая трансформация исполнительного производства в странах СНГ: сравнительно-правовой анализ // Право и экономика. – 2022. – № 4. – С. 34-41.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>